

TIL BIRLIKLARIDA GENDER STEREOTIPI TADQIQI

N.A.Xoshimova, f.f.f.d.

Annotatsiya

Mazkur maqola gender stereotipi orqali shakllangan gender metaforaning tadqiqiga bag'ishlangan. Har qaysi madaniyatda erkak va ayol haqida stereotiplari shakllanib, millatning milliy olam manzarasini namoyon etadi va erkak hamda ayol tasviri til birliklarida o'z ifodasini topadi.

Kalit so'zlar: *gender stereotipi, gender metafora, frazeologik tizim, paremiologik tizim, erkak, ayol, oppozitsiya, tasavvur.*

Annotation

This article is devoted to the study of gender metaphors formed through gender stereotypes. In each culture, stereotypes about men and women are formed, reflecting the national worldview of the nation, and the image of men and women is expressed in linguistic units.

Keywords: *gender stereotype, gender metaphor, phraseological system, paremiological system, man, woman, opposition, imagination.*

KIRISH

Ma'lumki, jamiyatda erkak va ayol ta'rif-tavsifi bilan ma'lum stereotiplar shakllanadi. Stereotip tushunchasi jamiyatda biror inson, hodisa va ob'ekt/predmetni tasvirlash maqsadida shakllangan tasavvurlar sifatida izohlanadi. Har qaysi jamiyatda gender stereotipi shakllanib, mazkur jamiyatga taalluqli xususiyatlari bilan farqlanadi. Gender stereotipi bevosita biologik omil ta'sirida shakllanib, erkak va ayolga xos umumiy jihatlari bilan ifodalansa, madaniy omil ta'sirida gender stereotipi farqlanishi kuzatiladi. Har qaysi jamiyatda gender stereotipi bo'yicha shakllangan metaforalar mavjud bo'lib, erkak va ayolning tasvirida metaforalar millatning tafakkurini namoyon

etadi. Mazkur maqolada gender stereotipli til birliklarining o'xshash va farli jihatlariga e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gender stereotipi masalasiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar soni talaygina. Jahon tilshunosligida gender stereotipi masalasi M.Pikering, rus tilshunosligida N.V.Lyubimova, A.S.Sinelnikov, O.Ryabov tomonidan bugungi kun gendershunoslik masalalaridan kelib chiqib tadqiq qilingan. Gender stereotipi hoirgi zamon tilshunosligida siyosiy, badiiy, publitsistik diskurs, reklama diskursida atroflicha o'rganilmoqda. Shu bilan birga gender stereotipining metaforalarda o'z aksini topishi bugungi kun izlanishlarning markazida bo'lib kelmoqda.

NATIJA VA UNING MUHOKAMASI

Bugungi kun tilshunosligida gender tili har tomonlama tadqiq etilmoqda. Yani gender tilining o'ziga xos xususiyatlari tilshunoslikning turli yonalishlari orqali atroflicha tadqiq qilinmoqda. Gender tili tadqiqida gender stereotipi tushunchasi shakllanadi. Mazkur maqolada gender stereotipi tushunchasining talqiniga e'tiborimizni qaratamiz.

Dastavval, stereotip tushunchasini izohlashga harakat qilamiz. Stereotip madaniyat yoki jamiyat ta'sirida inson, hodisa yoki ob'ekt haqida tasavvur sifatida talqin etiladi. Yani, har qaysi jamiyat yoki madaniyatda shakllangan stereotip boshqa jamiyat stereotipidan farqlanishi kuzatiladi. Stereotip (στερεός + τύπος) yunon tilida "mustahkam" va "iz" so'zlaridan kelib chiqib, inson tomonidan birorta ob'ekt, holatning baholanishidir. Stereotip salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin.

Gender stereotipi jamiyatda shakllangan femininlik hamda maskulinlik tushunchalarni qamrab oladi. Har qaysi jamiyatda gender stereotipining tasvirida o'xshashliklar ham mavjud bo'lishi mumkin. Quyidagi jadvalda erkak va ayol tasvirida voqelangan stereotiplarni kuzatish mumkin:

Erkak stereotipi	Ayol stereotipi
Kuch	Zaiflik
Faollik	Passivlik

Aggressivlik	Nizo holatlarida o'zini tuta olishi
Mavqega berilish	Hissiyotga berilish, emotsionallik
Dominantlik	Tobelik
Raqobatchilik	Hamkorlik

Gender stereotipi o'zgarmaydigan, mustahkam bo'lishi bilan ta'riflanadi. Mazkur jadvalda ifoda etilgan erkak va ayolning xususiyatlari ma'lum bir yillarga yoki asrlarga mo'ljallangan emas. Masalan, ayolga xos tobelik, zaiflik, nimjonlik, erkakka xos dominantlik, faollik, aggressivlik ijtimoiy tasavvurlar hisoblanib, doimo erkak va ayolni tasvirlaydi. Gender stereotipi binar oppozitsiyada aks etiladi.

Gender stereotipi tushunchasining ifodasida olamning milliy manzarasiga yondashish zarur. Har qaysi til sohibi o'z millatining madaniyatini tashuvchisi hisoblanadi, shuning uchun til milliy mentalitetni aks ettirishi mumkin. Jamiyatda erkak va ayol o'zlarini qanday tutishi kerak, ularning jamiyatdagi, oiladagi vazifalari olamning milliy manzarasida aks etiladi. Erkak va ayolning stereotipli tasviri tilning frazeologik va paremiologik qatlamida ko'rinadi. Frazeologik va paremiologik tizimlarining chog'ishtirma tadqiqi erkak va ayol stereotipi haqida millat tasavvurini namoyon etadi. Gender stereotipi frazeologik va paremiologik birliklarda shakllanar ekan, bunda biz erkak va ayolning tashqi ko'rinishi, mehnatkashligi, aqli, ayyorligi haqida qator misollarni keltiramiz. Millatning olam manzarasida insonning turli xususiyatlari majozan tasvirlanib, xalq maqol, matal va frazeologik birliklarida namoyon etiladi. Masalan, erkakning jasurligi *arslon* orqali, ayolning nodonligi *tovuq* orqali, ayolning chiroyi turli *gullar* orqali tasvirlanadi. Erkakning kuchi, jasurligini bildiradigan frazeologik birliklar – *Arslonday kuchli*, *As brave as lion*, *Silniy kak lev*; erkakning nodonligini ko'rsatuvchi hayvon – *Eshak*, ayolning nodonligini tasvirlaydigan frazeologik birlik – *Tovuq miya* yoki paremiologik birlik – *Oq(qora) tovuq somon sochar*, *o'z ketini o'zi ochar*. Mazkur birliklar millatning olam manzarasini namoyon etib, erkak va ayol stereotipi til birliklari orqali majozan voqelanishi diqqatdga sazovor masalaga aylanadi. Ayol kishining chiroyi tabiat orqali ifodalanishini rus tilida ham ko'zga tashlanadi: ayol chiroyi tasviri – *Kak polnaya luna*;

Stroynaya kak trostinka, ayolning nodonligi – *Kak korova*, *Glupaya kak gusinya*. Rus tilida erkak va ayol tasvirini qadimiy yunon afsonalari qahramonlari va ma'budalar ismidan kelganligini kuzatish mumkin: chiroyli, kelishgan erkakka nisbatan qadimiy yunon qyoush ma'budasi ismini qo'llash – *Appolon*, chiroyli aylolga nisbatan go'zallik ma'budasi ismini qo'llash – *Venera*, *Afrodita*. Ingliz tilida erkakni majozan anglatuvchi hayvonlar – *hog (cho'chqa)*, *mule (eshak)*, *swine (cho'chqa)*, *dog (it)*, ayolni anglatuvchi hayvonlar – *bird (qush)*, *fox (tulki)*, *cat (mushuk)*, *hen (tovuq)* ko'p uchraydi.

Erkaning dominantligi qator maqol birliklarida ko'rinib, ayolning zaifligi ko'zga tashlanadi: *Muj pashet, a jena plyashet; Kobila ne loshad, baba ne chelovek; Zaifa tushi chap. Zaifa* leksema ayol kishini bildiradi. Ayol kishining vaziyatni nizolarga olib kelmasligi quyidagi birliklarda namoyon etiladi: *Jyonushka dushka, chto puxovaya podushka; Erni er qiladigan, qora yer qiladigan ham ayol*. Ayol kishining nafaqat nodonligi, balki aqli ham paremiologik birliklarda ko'rinadi: *Bez jeni, chto bez uma; Er vaziri – xotin*. Biroq aql maqol birliklarida ko'proq erkakka xosligini ham aytish joiz. Bu esa ayoldan ko'ra erkak aqlliroq stereotipini har qaysi jamiyatda vujudga keltiradi. Shu bois ayol aqli hamda ayolning qat'iyligi *mujskoy um* va *mujskoy xarakter* ifodalar orqali aks etiladi.

Ko'rinadiki, til birliklarida gender stereotiplari erkak va ayolning xususiyatlari hamda o'zini tutushlari jamiyatda tarqalgan tasavvurlarni namoyon etadi. Gender stereotiplari ma'lum jamiyatda mavjud bo'lgan gender rollar bilan bog'liqligini kuzatish mumkin, masalan: erkakning dominantligi hattoki oila munosabatlarida ifodasini topadi: *Erkak – bosh, ayol – bo'yin; Muj – golova, a jena – sheya; Muj – glava semyi*; ayoning onalik vazifasi: *Jenshina – prejde vsego mat, Bolaning o'yi – dalada, onaning o'yi – bolada*.

Yuqorida keltirilgan maqol birliklaridan xulosa chiqarish mumkinki, gender stereotipi rus va o'zbek jamiyatlarida bir hil tasavvurlar orqali vujudga keladi. Yani erkaklar – kuchli, ayollar – zaif; erkaklarning aqli boshdan, ayoola aqli yurakdan; erkaklar – ma'suliyatsiz va o'ylamay ish yuritishi va faqat ayollar ularni boshqara

olishi, erkaklar – oila bosi, ayollar – uy boshi kabi tasavvurlar umumiyliги bilan ko‘zga tashlanadi.

Ko‘rinadiki, turli tillarda gender xususiyatlarini namoyon etuvchi metaforalar mavjud bo‘lib, ular frazeologik va paremiologik birliklarda yuzaga chiqadi.

XULOSA

Umumiy lashtirib aytish joizki, gender stereotipi har qaysi jamiyatda shakllanib, milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa millat ongi va tafakkurining o‘ziga xos qirralarini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Любимова, Н. В. Гендерные стереотипы сегодня / Н. В. Любимова // Гендер: язык, культура, коммуникация: докл. второй Междунар. конф., 22– 23 нояб. 2001 г. – М.: Вудомино, 2002. – С. 227–235.
2. Синельников А.С. В ожидании референта: маскулинность, феминность и политика гендерных репрезентаций // Женщина. Гендер. Культура. М., 1999.
3. Рябов О.В., Смирнова А.В. Гендерные стереотипы и образ родины в массовом сознании советского общества // Гендерные отношения в России: история, современное состояние, перспективы: Материалы междунар. науч. конф. Иваново, 1999.
4. Pickering, M. Stereotyping: the politics of representation / M. Pickering. – N. Y. : New York Press, 2001. – 264 p.